

JADID MA'RIFAATPARVARI BEKCHON RAHMON

Sayyora Samandarova

Urganch innovatsion universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

sayyorasamandarova68@gmail.com. <https://orcid.org/0009-0000-2632-5338>.

Аннотация: Ушбу мақолада 1913-1918 йилларда Истамбулда таҳсил олган Хоразмлик жадид намоёндаси Бекжон Раҳмоннинг ижтимоий, сиёсий ва маърифий ҳаракатчиликдаги фаолияти, яратган асарлари тўғрисида фикр юритилади.

Аннотация:: Данная статья даёт представление о деятельности в области социальной, политической и образовательной мобильности, а также о произведениях, созданных джадидом Хорезма Бекджон Рахманом который учился в Стамбуле в 1913-1918 годах.

Annotation: This article discusses the social, political and educational activities of Bekjon Rahman, an exponent of Jadidism of Khorezm, who studied in Istanbul in 1913-1918, and his works.

Калит сўзлар: Истамбул, Хива, Боку, жадид, "Инкилобқуёши" газетаси, республика, курултой, ЗакийВалидий, Чўлпон.

Ключевые слово: Истанбул, Хиве, Боку, жадид, газета «Инкилобқуёши», республика, съезд, ЗакийВалидий, Чулпон.

Key words: Istanbul, Khiva, Baku, Jadid, "Sun of the Revolution" newspaper, Republic, Congress, Zeki Velidi, Cholpon,

Fitrat, Cho'lpon, Fayzulla Xo'jayev, Munavvar Qori kabi o'zbek jadid namoyondalari, shuningdek, nafaqat boshqird, balki butun turkiy dunyoning faxru iftixori bo'lgan Zakiy Validiy, ozarbayjonlik Samadog'a Ag'amalilar bilan do'st va maslakdosh bo'lgan Bekchon Rahmon 1887 yilda Xivada tug'ilgan edi. Bekjonning otasi Rahmonbergan mahram Xiva xoni bosh vaziri Islomxo'janing mahrami bo'lib, bevosita

20 asr boshida uning tashabbusi bilan barpo etilgan pochta-telegraf binosi, rus shifoxonasi, masjid va minora qurilishiga va Nurillaboy saroyining jihozlanishiga boshchilik qilgan shaxs edi. Ma'rifaatparvar Rahmonbergan mahram aynan Islomxo'janing tashabbusi bilan o'g'li Bekjonni 1912 yil oxirida Usmoniylar davlatida tahsil olish uchun yuborgandi. Shu tarzda Bekjon 1913-1918 yillarda Istanbul universitetida tahsil oladi. Istambulda paytida u Buxorolik Fitrat bilan tanishdi. Shuningdek Bokulik Samadog'a Ag'amali bilan birga Istanbul universitetida birga o'qidi. Ma'lumki, bu davrda nafaqat Turkiyada, balki butun turkiy musulmon o'lkalarda Ismoil Gasprinskiyning jadidchilik harakati o'z ta'sirini jamiyatning barcha sohalarida o'tkaza boshlagan edi. Ana shu davrdagi vaziyat, qolaversa tabiatan adolatparvar, ma'rifatparvar bo'lgan Bekjon Rahmon ham jadidlar safiga qo'shildi. 1918 yilda Xivaga qaytgach madrasada mudarris bo'lib ishlash bilan birga, Polvonniyoz Yusupov, Boboovun Salimov, Xudoybergan Devonovlar bilan "Yosh xivaliklar" harakatida bir safda turib, xonlik istibdodiga qarshi kurashdi. 1920 yilda xonlik tugatilib Xorazm Xalq Respublikasi tashkil etilgach, ushbu respublikada madaniyat, maorif noziri, markaziy ijroiya qo'mita ish boshqaruvchisi vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. Ana shu vazifalarda ishlash jarayonida maktablar uchun "O'qish kitobi", "Alifbe" darsliklari, musiqaga oid asarini yaratdi"(1). Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Bekchon Rahmonov hamda Muhammad Yusuf Devonzodalarning asaridan g'oyat ta'sirlanganini yozgan va ushbu kitobning musiqashunoslikda tutgan o'rniga g'oyat yuksak baho bergan edi. Haqiqatan ham, 1925 yilda Moskvada nashr etilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi musiqashunoslik nazariyasi va tarixiga doir eng e'tiborli manba bo'lgani bois, B.Belyaev hamda G.Forner kabi rus va xorij musiqashunoslari ham Bekchon Rahmon va Devonzodalarning asariga murojaat qilishgan. "Bekchon Rahmonning madaniyat noziri sifatida qilgan eng katta ishi 1920 yil 11 aprelda Xorazmning o'tmishdagi madaniyati va osori-atiqalarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida xalq madaniyati muzeyini barpo etgani hamda unga rahbarlik qilganidir. Ya'ni hozirgi Ichan Qal'a muzey qo'riqxonasining tashkilotchi,

tashabbuskori va uning dastlabki rahbari ham Bekchon Rahmon edi. Shuningdek, 1923 yilda Xorazmda ilk bor musiqa maktabini tashkil etib, voha musiqa nazariyasi va tarixi, Xorazm maqomlari hamda usullari, nota yozuvining ixtiro qilinishiga oid “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobini Devonzoda bilan birga yozib, nashr ettiradi” (2). Shuningdek, Bekchon Rahmon 1920 yil 8 martda voha tarixida ilk bor matbuotga asos soldi. Ya’ni, shu sanadan boshlab nashr etila boshlangan “Inqilob quyoshi”(hozirgi “Xorazm haqiqati”) gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat ko’rsatdi. Xorazmda o’sha davrda nashr etilgan “Qizil Xorazm”, “Maorif”, “Xorazm xabarlar”, “Yordam”, “Yoshlar ovozi”, “Ishchilar tovushi”, “Qopqon” singari gazetalarni ham tashkil etishga bosh-qosh bo’ldi. Xalq maorifi noziri bo’lib ishlagan paytida Bekchon Rahmon vohada yangi maktablar tashkil qilish, uzoq ovullardagi bolalarni maktabga jalb etish, ta’lim maskanlarini o’qituvchilar bilan ta’minlash uchun jonkuyarlik qilgan. Shuningdek, Boboovun Salimov bilan birga maktablar uchun “Alifbe” va “O’qish kitobi” darsliklarini yozib, chop ettirdi. Shuningdek, Xudoybergan Devonov bilan hamkorlikda Xorazm qog’oz fabrikasini qurish bo’yicha ham sa’yi-harakatlar olib bordi. Devonovga 1937yildagi qatag’on davrda qo’yilgan ayblardan biri Xivaga kelgan turkiy xalqlar ozodlik harakati yo’lboshchilaridan biri Zakiy Validiy vohaga kelganda, u bilan maslakdoshlik qilganligi edi. XXR davrida Xivani qo’riqlash guruhi, ya’ni militsiya rahbari bo’lib ishlagan Nazar Sholikorov o’z xizmat burchiga ko’ra, Xivaga kelgan har qanday kishini kuzatib yurishga, shu tufayli bo’lib o’tgan voqealarni 1937 yilda hibsga olingach aytib berishga majbur bo’lgandi. Shunga ko’ra, Devonov va Validiy haqida bunday deydi: “Men uch kungacha (Xorazmga) kimning kelganini bilolmay yurdim. Yusupov (XXR hukumati boshlig’i bo’lgan Polyozhoji Yusupov) boshliq barcha xalq komissarlari uylariga ham kelmay qayerdadir yig’ilish o’tkazayotgan edilar. Bu hol menda shubha uyg’otdi. Xorazm bilan Buxoroning birlashgan holda kurash olib borishi uchun Xorazmga buxorolik vakillar kelishgan edi. Men muzokara olib borish uchun vakil etib tayinlandim. Menim yonimda o’tirgan Mulla Bekchon oradan bir necha soat o’tmay kengashni ertaga qoldirishimni so’radi va o’zining bu iltimosini uyida mehmoni borligi,

ketishi zarurligi bilan izohladi. Men rozi bo'ldim va biz ikkimiz bir otga minib u bilan birga ketdik. Devonovning uyiga yaqin qolganimizda u otdan tushib qoldi. Men uyga kelganimdan so'ng tog'am Ollanazarni xalq komissarlarining uydami yo'qligi ekanliklarini tekshirish uchun yubordim. U militsiya bilan yurib kechasi soat uchda Yusupovni tutib keltirdi, ammo men uni qo'yib yubordim. Ertalab Yusupovning oldiga borib, o'tgan kecha qayerda bo'lganini surishtirdim. U Rahmonov Bekchoning, Jumaniyoz hoji Polvonniyozovning so'nggi kechada Xudoybergan Devonovning uyida bo'lganini aytdi. U yerda Zakiy Validiy bilan birga Aydarov ham bo'lgan. Yusupovning so'zlariga qaraganda ularga kiyim bosh va pul berib Buxoroga kuzatib qo'yishgan ekan"(3). Demak, Sholikorov ma'lumotiga ko'ra, Zakiy Validiy Xivadan Buxoroga ketish kuni Xudoybergan Devonov uyida bo'lgan. Shuningdek, Zakiy Validiy Devonov va Polvonniyoz hojilar kabi Bekjon Rahmonov bilan ham maslakdosh bo'lgan, Xivadagi uning uyida mehmon ham bo'lgandi. Chunki, ular Bokuda o'tgan Sharq xalqlari qurultoyida birga qatnashishgan, o'sha yig'inda Bekjon Validiy Xorazmga taklif qilgandi. Bekchon Rahmonov XXR rahbarlari orasida eng salohiyatli va milliy davlat qurish tashabbuskori bo'lgani uchun ham 1920 yilda Xorazmga borgan turkiy xalqlar ozodlik harakatining g'oyaviy yo'l boshchisi Zakiy Validiy uning uyida mehmon bo'lgandi. Z. Validiyning 1969 yilda Turkiyada nashr etilgan "Xotiralar" kitobida mulla Bekchoning dunyoqarashi, ish faoliyati o'rin olgan. Muallif bir o'rinda dolg'ali davrlarni quyidagicha xotirlaydi: "Mulla Bekchon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko'rsatdi. Agar Rusiya xalaqit bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo'lur edilar. Maorif vakili bo'lgan mulla Bekchon-Istanbulda o'qib kelgan bir yigit. Hukumat ishlaridan bo'sh vaqtlarida madrasadagi hujrasiga kelar, o'z qo'li bilan palov pishirar, o'sha vaqt uzoq suhbatlashar edik. U bir qancha asarlar yozdi". Bekchon Rahmon, Zakiy Validiy kabi Shafqiy Bekto'ra, Fitrat, Cho'lponlar bilan ham do'st edi. "Bekjon Rahmon ana shu maslakdoshlari bilan 1920 yilning avgustida Boku shahrida o'tkazilgan, 30 dan ortiq musulmon davlatlari vakillari ishtirok etgan sharq xalqlari qurultoyida ham faol qatnashgandi. Ayni paytda,

1920 yil 13 noyabrda Buxoro va Xorazm respublikalari o'rtasida tuzilgan do'stona hamda iqtisodiy, madaniy aloqalarga doir shartnoma tuzishga ham rahbarlik qilgan" (4). 1924 yilda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi va undan keyingi yillarda yuritilgan shovinistik, qatag'on siyosatidan so'ng Byekchon Rahmon ta'lim sohasida faoliyatini davom etdirdi. 1924-26 yillarda Xorazm okrug xalq ta'limi boshqarmasining boshlig'i bo'lib faoliyat ko'rsatdi. 1926 yilda O'zSSR xalq komissarlari sovetining raisi Fayzulla Xo'jayev, Bekjon Rahmonni poytaxt Samarqandga ishga taklif qiladi. Shu tarzda Bekjon Rahmon 1929 yilgacha O'zbekiston Markaziy ijroiya komitetida faoliyat ko'rsatdi. 1926 yilda Bokuda o'tkazilgan sharqshunos va turkologlarning xalqaro konferensiyasida Fitrat, V.Bartold, A.Samoylovichlar bilan birga qatnashdi va nutq so'zladi. Mashhur sharqshunos A.Samoylovich Xorazm Xalq Respublikasi davrida ham Xivaga kelgan va Bekjon Rahmon bilan uchrashgan va uning faoliyati bilan tanish edi. O'z davrining yetuk jadid ma'rifatparvari, Xorazmda muzey, musiqa maktabi va gazetaga asos solgan tashkilotchi rahbar, maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalarining muallifi, turkiy dunyodagi mashhur Zakiy Validiy, Samadog'a Ag'amali, Cho'lpon, Fitratlarning maslakdoshi, A.Samoylovich, V.Bartold, B.Belyaev, G.Former singari rus olimlarining hurmatu e'tirofiga sazovor Bekjon Rahmon 1929 yilda vafot etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Matkarimov, "Xorazm respublikasi: nozirlari, iqtisodi va pullari", "Xorazm" nashriyoti, Urganch-1993 yil.
- 2.U.Bekmuhammad, "Xorazm va xorazmliklar", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2022 yil.
- 3.N.Karimov, "Kinomiz kashshofi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1998 yil.
- 4.U.Bekmuhammad, "Xorazm va xorazmliklar", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2022 yil.